

TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH.

Karomova Dilshoda Xurshid qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti II-bosqich magistranti .

Ergashov Mansur Yarashovich

Buxoro davlat pedagogika instituti "Tabiiy fanlar" kafedrası professori,k.f.n.

Oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim jarayonining muhim vazifasi o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash hamda innovatsiyalarga ega bo'lgan mutaxassisning ijodiy shaxsini shakllantirishdan iborat. Bu ishni faqatgina o'qituvchidan talabaga tayyor shaklda o'tkazish bilan hal qilinmaydi. Hozirgi oliy ta'lim islohoti o'qitish paradigmasidan ta'lim paradigmasiga o'tish bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Shu sababdan, talaba mustaqil ishi (TMI) faqatgina o'quv jarayonining shakli emas, balki uning asosiga aylanishi kerak bo'ladi.

Mustaqil ishlar talabalarning individual qiziqishlari, qobiliyatlari hamda moyilliklarini hisobga oladigan yaxlit pedagogik tizim bo'lib, mustaqil bilish faoliyatini motivatsion va texnologik ta'minlash masalalari alohida e'tiborni talab qiladi. "Mustaqil ish" tushunchasi ko'p qirrali tushuncha bo'lib, talabalarning mustaqil ishi muammolari bo'yicha sezilarli darajada pedagogik tadqiqotlar olib borilishiga qaramay, shu didaktik jarayonning mohiyati hamda mazmuniga to'liq yondashuv mavjud emas. Mustaqil ish tushunchasi quyidagicha ma'nolarni ifodalaydi:

- O'qituvchining bevosita ishtirokisiz ham talaba topshiriqlarni o'zi bajarishi kerak;
- Mustaqil fikr yuritishga, o'quv materialiga o'z-o'zini yo'naltirgan holda talabaning mustaqil bo'lishi talab qilinadi;
- Topshiriqni bajarilish jarayoni qat'iy tartibga solinmagan, topshiriqlarning bajarilish usullari erkin tanlanilishi mumkin.

Mustaqil ish - mustaqillik kabi shaxsning muhim xususiyatini shakllantirish vositasi, talabalarning bilish faoliyatini tashkil etish shakli bo'lib, u faollik, fikr mustaqilligi, ijodkorlik, qat'iyat va topshiriqni bajarishda tashabbuskorlikni talab qiladi. Talabalarning mustaqil ishlarining har xil bosqichlarida ularning mustaqilligi oddiy takrorlash, taqlid qilish hamda ijodkorlik singari har xil yo'llar bilan namoyon bo'ladi. Bajarilgan vazifalarning qiyinligi ortib borishi bilan u paydo bo'ladi, rivojlanadi hamda murakkablashadi.

Talabaning turli xil fanlar bo'yicha mustaqil ishining samaradorligi hamda uning shaxsiy fazilatlarini, intizomi, xotira, diqqat, irodaviy sifatlar singari aqliy sifatlarini va boshqalarga bog'liq holda, unumli mustaqil ishning asosiy shartlaridan biri uning shakllanishi hamda rivojlanishi hisoblanadi.

Talabalar mustaqil ishining maqsadi - turli manbalardan yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida ularning shaxsiy rivojlanishini nazarda tutiladi. Mustaqil ishlarga darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, fanlar bo'yicha klassik mualliflarining ilmiy ishlari, monografiyalar, ilmiy maqolalar to'plamlari va ilmiy ma'ruzalar, ixtisoslashtirilgan jurnallardagi ilmiy maqolalar, badiiy adabiyotlar bilan ishlash kiradi. Oxirgi vaqtlarda mustaqil ishlarda elektron shakldagi

manbalar (Internet tizimi, kompyuter dasturlari va elektron tashuvchilardagi ma'lumotlar) bilan ishlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Talabalarning mustaqil ishlariga insholar, izohlar, tezislar yozish kabi jarayonlar kiradi. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilishda darslik va o'quv qo'llanma bilan ishlash ham tizimli bo'lishi kerak. Adabiyotlarni mustaqil o'rganishda talaba uchun quyidagi harakatlarga yo'naltiruvchi ko'rsatma bo'lishi kerak. Hayotiy hodisalarni psixologik tahlil qilishdan (tadqiqotlaridan) olinadigan hamma xulosalarni yozib borish kerak. Bunday yozuvlarni maktablar hamda oliy o'quv yurtlarida amalga oshirib borish an'anaviy o'qitishda ko'pincha kitobda berilgan ma'lumotlarni ko'chirib yozib konspektlar qilib borish bo'ladi. Lekin kitobdan biror fikr keltirilsa, unda darhol sharhlashi ham kerak bo'ladi. Talaba yozib olingan qoidalarni hayotiy tushunishini ifodalovchi shaxsiy fikrlarini yozib borishi lozim. Bu o'quvchining fanni yaxshi o'zlashtirib, fan bo'yicha bilimlarni mustaqil ravishda egallashiga yordam beradi.

Talaba faqatgina ma'ruza tinglagani emas, balki uning mazmunini tushungan holda kitobni o'qib chiqishi hamda uning mazmun-mohiyatini anglab yetishi, psixologik jihatdan tahlil qilishi, olgan bilimlari asosida kundalik amaliyotda foydalanishga tayyor bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Oliy o'quv yurtida o'qitish talabalarning sessiyalar oralig'ida o'zi mustaqil bilim olishini to'g'ri tashkil etishga bog'liq bo'ladi.

Talabalar fanni o'zlashtirishda faqatgina uning mazmunini yaxshi bilishlari bilan emas, balki yana bu bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llashni bilishlari muhim sanaladi. Mustaqil bilim olish tizim sifatida o'z tuzilishlariga ega. Talaba bu tuzilishning barcha elementlaridan to'la foydalana bilishi muhim hisoblanadi. Har qanday talaba ham o'qituvchiga maslahat so'rab murojaat qilavermaydi. Tajribalardan ko'rinadiki talabalar hatto ma'lumotlar olish uchun navbatchi o'qituvchilar bilan uchrashuvga ham kelmaydilar. Talabalar o'quv materiallarini o'zlashtirishda qiyin nazariy masalani tushunib o'zlashtirish muhim sanaladi. Mustaqil bilim olish mahoratiga tezda o'rganib olish uchun talabalarga ishlash metodlari va usullarini o'rgatish kerak bo'ladi. Bu metodlarni ko'rib chiqish uchun mustaqil ishlashni tashkil etuvchi qismlariga ajratib chiqamiz:

- ma'ruza konspektlarini o'qish;
- o'quv va ilmiy adabiyotlarni o'qish sharhlash hamda konspekt tuzish;
- sinovlarga tayyorlanish.

Ma'ruzalar konspektlarini o'qish bir necha maqsadlarga ega:

Birinchisi, ma'ruzalarda nimalar haqida gapirilganligini esga olish;

ikkinchisi, talabaning ishlarini ma'ruzalarda tinglaganlarini tushunishini mustahkamlovchi hamda guruhlashtiruvchi hayotiy misollar, fikrlar asosida to'ldirish;

uchinchisi, qisqacha ma'ruzani to'la ochib berishi mumkin bo'lmagan, lekin qandaydir hujjatlar hamda adabiyotlarni o'qish paytida talabalar alohida e'tibor berishlari kerak bo'lgan ma'lumotlarni darslikdan o'qib olish.

Ma'ruzalar konspektlari keyingi ishlari uchun o'ziga xos yo'l ko'rsatuvchi, yo'naltiruvchi manbaa bo'lib xizmat qiladi. Ma'ruzalarda faqatgina ko'rsatib o'tilgan, lekin ochib berilmagan masalalarni yaxshiroq hamda to'laroq tushunib olishga ko'maklashadi. U yoki bu psixologik



hodalarni tushuntirish uchun hayotiy metodlarni tanlab olish muhim hisoblanadi, chunki talabning hayotiy kuzatishlariga mos keladigan misolni tanlab olishda o'ylash jarayonining o'zi mavjud muammo yoki mavzuni hayotga mos ravishda o'zlashtirish bo'yicha fikrlash faoliyati nazariyani amaliyotda qo'llashga birinchi urinish bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish tarixi // Kasb-hunar ta'limi. 2018. 16-25 betlar.
2. Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning pedagogik xususiyatlari // 2016. 33-35 betlar.
3. Komarova T.S. O'qitish metodikasi. - Moskva: Ma'rifat, 2019. 160 b.
4. Андреева Г.М. Социальная психология. -М., 1998-376-с.